

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ
ВАЗИРЛИГИ**

ТОШКЕНТ КИМЁ - ТЕХНОЛОГИЯ ИНСТИТУТИ

**ЁҚИЛҒИ ВА ОРГАНИК БИРИКМАЛАР КИМЁВИЙ ТЕХНОЛОГИЯСИ
ФАКУЛЬТЕТИ**

**«НЕФТ-ГАЗНИ ҚАЙТА ИШЛАШ КИМЁВИЙ ТЕХНОЛОГИЯСИ»
КАФЕДРАСИ**

Хазратов Миродилла

**Аминобирикмалар ёрдамида табиий газни
тозалашда тўйинган абсорбентни регенерациялаш бўлимини
лойиҳалашда янги технологиядан фойдаланиш.**

Қуввати 3,75 млрд. м³/й.

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШ

MUNDARIJA

1. Kirish
2. Texnik - iqtisodiy asoslar
3. Xom-ashyo, moddalar va tayyor mahsulot tavsifi
4. Texnologik jarayon tavsifi
5. Asosiy qurilmaning texnologik hisobi
6. O'lchash asboblari va avtomatlashtirish
7. Atrof - muhit muhofazasi
8. Fuqaro muhofazasi
9. Mehnat muhofazasi
10. Iqtisodiyot bo'limi
11. Bitiruv ishining qisqacha mazmuni
12. Foydalanilgan adabiyotlar

1) KIRISH

Hozirgi vaqtda energiyaning asosiy manbalaridan biri neft va gaz hisoblanadi. Ulardan asosan turli suyuq yoqilg'ilar – benzin, kerosen, dizel va qozonxona (mazut) yoqilg'isi olish uchun foydalaniladi. Shuningdek, neftdan maxsus va surkov moylari ham ishlab chiqariladi. Qayta ishlash jarayonlari orqali olingan mahsulotlar plastmassalar, sintetik kauchuk va smola, sun`iy tola va yuvish vositalari, dori–darmonlar va shu kabi bir qator halq ho'jaligi uchun zarur mahsulotlar ishlab chiqarishda xomashyo sifatida foydalaniladi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan yillardan boshlab ishlab chiqarishning asosiy sohalaridan hisoblangan neft va gaz sanoatiga katta e`tibor qaratildi. Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimovning 1992- yildagi neft va gaz soxasini rivojlantirish to'g'risidagi qaror va farmonlari sohada qilinishi kerak bo'lgan ishlar ko'lami aniqlab olindi. Respublika yoqilg'i-energetika mustaqilligiga erishish maqsadida mavjud ishlab turgan zavodlar qatoriga yangi zavodlar qurishga kirishildi. Yangi quriladigan zavodlar ishga tushirilishi bilan ichki bozordagi yoqilg'i mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirish bilan birgalikda tashqi bozorga ham mahsulot chiqarish ko'zda tutilgan edi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar neft va gazni qayta ishlash zavodlari Oltiariq (1906 y.), Farg'ona (1958 y.) va Muborak (1971 y.) gazni qayta ishlash zavodlari qatoriga 1997- yil 22- avgustda ishga tushirilgan Qashqadaryo neft va gazkondensatini qayta ishlashga mo'ljallangan zavod va 2001- yilda Sho'rtan gaz kimyo majmuasi qo'shildi. Umuman O'zbekistondagi neft va gazni qayta ishlash sohasini vujudga kelishiga nazar solsak, 19–asr oxirida Farg'ona vodiysida ochilgan dastlabki konlar asosida 1904-1906 yillarda O'zbekistonda birinchi Oltiariq neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirilishidan boshlangan. Oltiariq neftni qayta ishlash zavodi asosan neftni birlamchi qayta ishlashga mo'ljallangan bo'lib, hozirgi vaqtdagi ishlab chiqarish quvvati yiliga 1.5 mln.tonnani tashkil etadi:.

Mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish maqsadida 1958- yilda Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirildi. Zavodda neftni birlamchi va ikkilamchi qayta ishlash jarayonlari olib boriladi. Uning hozirgi vaqtdagi ishlab chiqarish quvvati yiliga 5.5 mln. tonna neft va kondensatini qayta ishlashga mo'ljallangan. Zavodda shuningdek, yiliga 500 ming tonna moy ishlab chiqarish quvatiga ega qurilmalari mavjud. 1996- yil Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi chet el ilg'or texnologiyalari

(Yaponiya) asosida qayta rekonstruksiya qilindi. Hozirda zavodda neft mahsulotlarini 50 dan ortiq hili ishlab chiqariladi.

Respublikamizda neftni qayta ishlash bilan birgalikda gazni qayta ishlash sohasiga ham katta e'tibor berildi. 1971- yil dekabrda Muborak gazni qayta ishlash zavodi birinchi navbati ishga tushirildi. Zavod asosan xalq xo'jaligi uchun eng arzon yoqilg', tabiiy gaz etishtirib beradi. Muborak gazni qayta ishlash zavodining dastlabki quvvati yiliga 5 mlrd. m³ tabiiy gazni qayta ishlashdan boshlangan. 1978-80 yillarda zavodning ikkinchi va uchinchi navbatlari ishga tushirilib, umumiy quvvat yiliga 10 mlrd. m³ ni tashkil etdi. 1984- yil to'rtinchi navbati ishga tushirildi va umumiy quvvat yiliga 25 mlrd. m³ ni tashkil etdi. Hozirgi vaqtda umumiy quvvat yiliga 30 mlrd. m³ ni tashkil etadi. Muborak gazni qayta ishlash zavodi xomashyo manbalari asosan yuqori oltingugurtli (4,5-5,0%) O'rtabuloq, Dengizko'l-Hauzak, Samantepa konlari va kam oltingugurtli (0,08-0,3%) Kultak, Zevarda, Pamuq, Alan gaz konlaridir. Zavodning asosiy mahsulotlari tabiiy gaz, texnik oltingugurt, barqarorlashtirilgan kondensat va suyultirilgan gaz hisoblanadi.

Istiqlol yillariga kelib, 1997- yilda gaz kondensatini qayta ishlashga mo'ljallangan xorijiy davlatlarning ilg'or zamonaviy texnologiyalardan biri Fransiya "Teknip" kompaniyasi texnologiyasiga ko'ra Qashqadaryo neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirildi. Zavodning umumiy quvvati yiliga 2.5 mln. tonna neft va gaz kondensati aralashmasini qayta ishlashga mo'ljallangan. Zavodda neft va gaz kondensati aralashmasini birlamchi qayta ishlash jarayonlari olib boriladi. Zavodni asosiy xomashyo manbai Ko'kdumaloq konlaridan olinayotgan gazkondensatlari va olinadigan mahsulotlari esa asosan suyultirilgan gaz, yuqori sifatli benzin navlari, kerosin va dizel yoqilg'ilari, hamda qoldiq - mazut hisoblanadi.

Respublikamizda neft kimyosi va organik sintez moddalar olishni ko'paytirish maqsadida 17- fevral 1998- yil "O'zbekneftegaz" va "ABB Lummus Global"(AQSh), "ABB Soimi"(Italiya), "Nisho Ivai", "Toyo injiniring"(Yaponiya) kompaniyalari o'rtasida gaz kimyo majmuasini loyihalash, qurilmalarni yetkazish, o'rnatish va ishga tushirish bo'yicha shartnoma imzolandi. 2001 yil oxirida Sho'rtan gaz kimyo majmuasi ishga tushirildi va 2002- yil 15- avgustidan birinchi o'zbek polietileni chiqarildi. Gaz kimyo majmuasi umumiy quvvati yiliga 4,2 mlrd. m³ tabiiy gazni qayta ishlashga mo'ljallangan bo'lib, quydagi mahsulotlar olinadi:

- donador polietilen (125 ming.tonn.);
- suyultirilgan gaz (137 ming.tonn.);
- gazkondensati (103 ming.tonn.);
- donador oltingugurt (4 ming.tonn.).

Sho'rtan gaz kimyo majmuasida ishlab chiqarilayotgan barcha polietilen mahsulotlari ekologik va gigienik sertifikatlarga egadir. Zavod mahsulotlariga 2005- yil Xalqaro ISO-9001 sifat sertifikati berildi.

Hozirgi vaqtda Sho'rtan GKM mahsulotlarining 70% eksportga chiqarilmoqda. Ya`ni Ovroqpa mamlakatlari (Italiya, Gollandiya, Polsha, Vengriya, Turkiya), Osiyo (Eron, Pokiston, Xitoy), MDH davlatlari(Rossiya, Ukraina, Ozarbayjon, Qirg'iziston, Tojikiston) ga eksport qilinmoqda.

Hozirgi vaqtda Respublikamizda yoqilgi energiyasiga bo'lgan talabni to'la qondirishda "O'zbekneftgaz" Milliy holding kompaniyasi asosiy o'rin tutadi. Kompaniya 154 korxonaga va tashkilotni o'z ichiga olib, ulardan 87 tasi aksionerlik hamda 67 tasi davlat korxonalaridir. "O'zbekneftgaz" tizimida 8 ta yirik kompaniya faoliyat yuritadi: "O'zgeoneftgaz qazib chiqarish", "O'zneftgazburg'alach", "O'zgaznaqliyo", "O'zneftni qayta ishlash", "O'zneftmahsulot", "O'zneftgazqurilish" va boshqalari neft va gaz sanoatida muhim rol o'ynovchi kompaniyalardir, ya`ni "O'zneftgazmash", "O'zneftgazhimoyata`minot", "O'zneftgazaloqa", "O'ztashqineftgaz".

Hozirda Respublikamizda jahon sifat andozalariga mos keluvchi tayyor neft mahsulotlarini tashqi bozorga chiqarilyapti.

LOYIHALASHNING TEXNIK IQTISODIY ASOSLARI

2) LOYIHALASHNING TEXNIK IQTISODIY ASOSLARI.

Mustqil O'zbekiston respublikasining xalq xo'jaligining jadal suratlarda rivojlantirish va uning mustaxkam moddiy texnik bazasini yaratishning asosiy masalasi ---- bu mamlakatimiz hududida sanoat korxonalarining ratsional joylashtirishdir. Bozor munosabatlari iqtisodiy sharoitda xalq xo'jaligining tezlikda rivojlanishining zaruriy sharoiti bo'lib, xom ashyo manbalarini va mahsulot istemolchilarini yaqiniga sanoat korxonalarini qurish hisoblanadi.

Neftni qayta ishlash sanoati korxonalarining ratsional joylashtirishga ko'p jihatlar tasir ko'rsatadi. Ammo hech bir jihat alohida olganda tasir o'tkaza olmaydi. Ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri joylashtirgan holda qurish, mablag' sarfi iqtisodiga tegishli ishlab chiqarish rentabelligini oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirishga va samaradorligini o'sishga olib keladi.

Qurilishni taklif etayotgan hudud tavsifi quyidagilardan iborat;
Neftni qazib olish, qayta ishlash, yoqilg'i surkov moylarini ishlab chiqarish, Sho'rtan USHK da amalgam oshiriladi. (Tabiiy gazni qayta ishlash, tabiiy gaz tarkibidan metan, etan, propan va butanni ajratib olish Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanida amalgam oshiriladi.)

Xom ashyo jihati; Xom ashyo sifatida Qashqadaryo viloyatining janubiy Ko'k dumaloq va shimoliy neft konlari, Qoroqolpog'iston gaz kondensatini ham qo'llash mumkin.

Suv manbalari: Boshqa sanoat tarmoqlari (kimyo va kimyoviy texnologiya) kabi bu korxonada ham ko'p miqdorda sarf qilinadi, ishlab chiqarish korxonasining texnik va ichimlik suvlariga bo'lgan talabni Qoradaryodan boshlanuvchu Qashqadaryo kanali taminlab beradi. Loyihada korxonadan kanalga quvur o'tkazilishi rejalashtirilgan. Suv nasoslar yordamida uzatib beriladi.

Energetika jihati: Elektr va issiqlik energiyasi bilan shu quriladigan korxonaga yaqin joylashgan TES – 1, TES – 2 (har biri 230 – 250 mingKVT quvvatga ega) issiqlik quvvati bo'yicha biri 683 g/kal ga teng korxonalar orqali taminlanadi.

Yoqilg'i jihati:G'uzor tuman gaz yoqilg'isini mahalliy janubiy ko'kdumaloq konidan oladi. Ko'kdumaloq – Qashqadaryo – quvasoy gaz quvurlari orqali qo'shimcha miqdorda gaz olinadi.

Transport turlari jihati: G'uzor tumani temir yo'l transporti bilan to'liq taminlangan. Shuning uchun mahsulotlarni jo'natish va xom ashyoni tashib keltirish mazkur temir yo'l orqali amalgam oshiriladi.

Kadrlar va ishchi kuchu bilan taminlanishi:Qashqadaryo neftni qayta ishlash zavodiga zamonaviy kadrlar va ishchilarni Qashqadaryo kimyo texnologiya va Toshkent kimyo texnologiya inistituti, hamda Toshkent Davlat texnika universiteti tayyorlaydi.

Qurilish madaniy va maishiy xizmat: Qashqadaryo viloyatida qurilish tashkilotlari va qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari mavjud. Qashqadaryoda temir beton ishlab chiqaruvchi zavod, g'isht zavodi, gibsokardon ishlab chiqaruvchi korxonalar mavjud.

Bo'sh vaqtlarni yaxshi o'tkazish uchun Qorovul bozorda madaniyat saroyi, sport stadioni, kinoteatrlar, kansert zallari klublar, kutibxonalar va boshqa shu kabilar ishlab turibdi.

Ishlab chiqarish chiqindilari kanalizatsiyaga tashlanadi, maxsus inshootlarda tozalanib, qayta ishlab chiqarishga beriladi. Chiqindi gazlari fakelda yoqib yuboriladi.

XOM ASHYO, MATERIALLARI, MAHSULOTLAR TAVSIFI

3) **XOM ASHYO, MATERIALLARI, MAHSULOTLAR TAVSIFI**

1-jadval – Dastlabki xom ashyo, reagentlar, katalizatorlar, yordamchi materiallar, yarim mahsulotlar, ishlab chiqariladigan mahsulotlar tavsifi

Xom ashyo, materiallar, mahsulotlar nomlanishi	Me'yoriy hujjatning belgilanishi	Nazorat uchun majburiy sifat ko'rsatkichning nomi	O'lchov birligi	Meyoriy hujjat bo'yicha ko'rsatkichning qiymati	Qo'llanish doirasi
1 To'g'ridan haydalgan neft	KSt 16472899-003:2008	1. 20 ^o Sdagi zichligi	kg/m ³	775 dan kam emas	Tuzsizlantirish va suvsizlantirishqurilmasi uchun xom ashyo
		2. Fraksiyaviy tarkib: Haydashning boshlanishi -10 %, dan yuqori emas - 50%, dan yuqori emas - 90%, dan yuqori emas - 98%, dan yuqori emas	^o S	150 ^o S 165 ^o S 195 ^o S 230 ^o S 250 ^o S	
		3. 20 ^o S dagi kinematik qovushqoqlik	mm ² /s (sSt)	1,25dan kam emas	
		4.Yopiq tigelda aniqlanadigan chaqnash harorati	^o S	28 dan kam emas	
		5. Aromatik uglevodorodlarning massaviy ulushi	vazn %	22 dan ko'p emas	
		6. Merkaptanli oltingugurtning massaviy ulushi	% (rrm)	0,01 (100) dan ko'p emas	
		7.Kristallanishning boshlanish harorati	oS	minus 50 dan yuqori emas	
		8. 100 sm ³ yoqilg'ining kislotaliligi	Mg KON	0,7 dan ko'p emas	
2. Demerkaptanlangan dizel fraksiyasi	KSt 16472899-007:2008	1. 20 ^o S dagi zichligi	kg/m ³	775 dan kam emas	Tayyor mahsulot

		2. Fraksiyaviy tarkib: Haydashning boshlanish harorati, - 10 % -i haydaladi; - 90 % -i haydaladi; - 98 % -i haydaladi	°S	150 dan yuqori emas 165 dan yuqori emas 195 dan yuqori emas 230 dan yuqori emas 250 dan yuqori emas	
		3. . Yopiq tigelda aniqlanadigan chaqnash harorati	°S	28 dan kam emas	
		4. Merkaptanli oltingugurtning massaviy ulushi	% ppm	0,005 dan ortiq emas 50 dan ortiq emas	
		5. 100 °S da mis plastinkasida sinash	3 soat davomi da	chidaydi	
		6. 100 sm ³ yoqilg'ining kislotaliligi	mg KON	0,7 dan ortiq emas	

3.Osh tuzi	12- qurilmadan foydalanish bo'yicha rahbariy hujjat	Kimyoviy tahlil: - NaCl (tuz –quruq massa) - CaSO ₄ (kaltsiy sulfati) - Na ₂ SO ₄ (natriy sulfati) - erimaydigan moddalar - namlik	%	94,28 dan kam emas O'rtacha 94,5 95,0dan ortiq emas 0,41 dan kam emas O'rtacha 0,46 0,52 dan ortiq emas 0,04 dan kam emas O'rtacha 0,09 0,13 dan ortiq emas 4,78 dan kam emas O'rtacha 4,88 5,15 dan ortiq emas 0,06 dan kam emas O'rtacha 0,07 0,09 dan ortiq emas	Namlikni quritish uchun
4. ATTA PULGUS ULTRA- CLEAR (attapulgit) qum yoki shunga o'xshash	12- qurilmadan foydalanish Bo'yicha raxbariy hujjat	1.To'kiladigan zichlik 2. kimyoviy tahlil SiO ₂ Al ₂ O ₃ Fe ₂ O ₃ CaO MgO K ₂ O Na ₂ O SO ₂ P ₂ O ₅ 3. Granulometrik tahlil: + 16 yoki+20 16/30 yoki 30/60 -30 yoki-60 -100	kg/m ³	496-529	Namlikni qattiq jismlarni, yuza faol moddalarn i yo'qotish uchun
			% ob.	70, 85 14,06 5,34 1,62 5,71 1,30 0,25 0,03 0,84	
			%	3,2 yoki 0-2 94,7 yoki 97-100 1,9 yoki 0-2,6 0,1 yoki 0-0,5	

5. Dietanolamin (DEA)	12-qurilmadan foydalanish Bo'yicha raxbariy hujjat	30 % eritmasi aminli tozalash (32-qurilmadan) o'tkaziladi.			N ₂ S ni yutish uchun (absorbent)
6. Uksus kislotasi (SN ₃ SOON)	12-qurilmadan foydalanish Bo'yicha raxbariy hujjat	1. Molekulyar vazni		60	ARI 120 katalizatori neytrallash uchun
		2. Konsentratsiyasi	%	99 dan yuqori emas	
		3. Solishtirma vazni		1,049	
		4. Muzlash harorati	°S	13-16	
		5. Qaynash nuqtasi	°S	118,8	
		6. Qovushqoqligi °S da	sP	1,22 0,90	
7. Kaustikli soda (kaustik NaOH)	12-qurilmadan foydalanish Bo'yicha raxbariy hujjat	1. Konsentratsiyasi	%	30 dan kam emas	Suv bilan almashtirish va 6,6% -li NaOH tayyorlash uchun
8. ACTICAR-BONE BGP MX 10x30 US MESH faollashtirilgan ko'miri	12-qurilmadan foydalanish Bo'yicha raxbariy hujjat	1. Xayolan zichligi	kg/m ³	205	Tozalash uchun (katalizator bilan to'yingan ko'mir)
		2. YUzasini umumiy maydoni	M ² /g	750	
9. ARI-100L katalizatori	12-qurilmadan foydalanish Bo'yicha raxbariy hujjat	1. Ko'rinishi	Qoramtir – ko'k suyuqlik yoki hidsiz poroshok		Oksidlanish katalizatori
		2. Solishtirma vazni		(N ₂ O=1):1,16	
		3. Faol moddasi: -ftolatsianin kobalt sulfonadi	%	22-24 va undan ortiq	
10. ARI-120L katalizatori	12-qurilmadan foydalanish Bo'yicha raxbariy hujjat	1. Ko'rinishi	Qoramtir – ko'k suyuqlik yoki hidsiz poroshok		Oksidlanish katalizatori
		2. Solishtirma vazni		(N ₂ O=1):1,16	
		3. Faol moddasi: -ftolatsianin kobalt sulfonadi	%	22-24 va undan ortiq	
		4. Qaynash nuqtasi	°S	100	
		5. 20 °S dagi bug' bosimi	mm Hg	19	

11. DJET A-1 (Jet A-1) avia yoqilg'isini ishlab chiqarish uchun to'g'ri haydalgan dizel fraksiyasi	KSt 16472899-019:2009		kg/m ³	775-840	Tuzsizlantirish va suvsizlantirishqurilmasi uchun xom ashyo
		1. 15 °S da zichlik			
		2. Fraksiyaviy tarkib: -Q.B. 10% -i haydaladi -50% -i haydaladi -90% -i haydaladi - qaynash oxirgi harorati	°S	145 dan past emas 205 dan yuqori emas 230 dan yuqori emas Meyorlanmaydi. Aniqlanishi shart 300 dan yuqori emas	
		3. Yopiq tigelda aniqlanadigan chaqnash harorati	°S	38 dan past emas	
		4. Aromatik uglevodorodlarning hajmiy ulishi	%	25 dan ortiq emas	
		5. Merkaptanli oltingugurtning massaviy ulushi	%	0,01 dan ortiq emas	

1-jadvalning davomi

Xom ashyo, materiallar, mahsulotlar nomlanishi	Me'yoriy hujjatning belgilanishi	Nazorat uchun majburiy sifat ko'rsatkichning nomi	O'lchov birligi	Meyoriy hujjat bo'yicha ko'rsatkichning qiymati	Qo'llanish doirasi
		6. Tutamaydigan alanga balandligi, yoki 3% dan ortiq bo'lmagan naftalinli uglevodorodlarning hajmiy ulishi	mm	25dan kam emas 19dan kam emas	
12. DJET A-1 (Jet A-1) avia yoqilg'isini ishlab chiqarish uchun demerkaptanlangan dizel fraksiyasi	KSt 16472899-020:2008	1. Merkaptanli oltingugurtning massaviy ulushi , yoki doctorlik namunasi	%	0,003dan ortiq emas manfiy	Tovarli Djet A-1 (Jet A-1) aviatsiya yoqilg'isining komponenti
		2. 100 ⁰ S da 2 soat ±5 min. Davomida mis plastinkasining zanglashi	sinf	1	
		3. Muzlash harorati	⁰ S	Minus 47 dan yuqori emas	
		4.Solishtirma elektr o'tkazuvchanligi	pS/m	10 dan ortiq emas	
		5. Suv bilan o'zoro tasiri, mikroseparator bilan yoqilg'ining yorug'likni o'tkazish qobiliyatini baholash: antistatic qo'shilmasiz		85 dan kam emas	
		6. xlorli tuzlarning konsentratsiyasi	mg/dm ³	Meyorlanmaydi.. Aniqlanishi shart	

Texnologik jarayon tavsifi

4, Texnologik jarayon tavsifi .

Neftni qayta ishlash zavodalariga keladigan neftlardagi suvning katta qismi 2 – 5 mkm diametrdagi suv tomchilaridan hosil bo'lgan emulsiya ko'rinishida bo'ladi. Neftli muhitdan tomchi yuzasiga smolasimon moddalar, asfaltenlar, organik kislotalar va ularni neftda erigan tuzlari adsorbriyalanadi. Shuningdek, qiyin suyuqlanadigan parafinlarni yuqori dispers zarralari yahshigina neftga aralashgan bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan adsobrsiya qavati qalinlashib, uning mehanik mustahkamligi ortadi va emulsiya susayishi kuzatiladi. Bu holatni oldini olish maqsadida ko'pgina konlarda neftga deemulgatorlar qo'shiladi. Deemulgatorlardan neftni suvsizlantirishni termokimyoviy va elektrokimyoviy usullarida foydalaniladi. Deemulgatorlar sarfi har bir tonna neft uchun 0.002 – 0.005 % (mass.) oralig'ida bo'ladi.

Neftni deminerallash - uning korrozion aktivligini kamaytirishning asosiy usullaridan biri bulib, xom ashyo holidagi neft tarkibidagi minearal tuzlarni maksimal darajada ajratib olishdir.

Neft tarkibida mineral tuzlar ikki:

- uglevodorodlar bilan aralashgan kristallar;
- neft tarkibidagi suvda erigan tuzlarning emulsiyasi kurinishlarida bo'ladi.

Neft tarkibidagi mineral tuzlar erigan suv tomchisi (emulsiyasi) ulchami 1/10 mikron bulib, u emulsiya zarrachasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi va emulgator zarrachalari yordamida barqarorlashgandir:

Neft tarkibidagi emulgatorlar qatoriga:

- neftenatlar;
- asfalten yoki oleatlar
(organik kislota tuzlari);
- temir sulfidi kiradi.



Suv tomchisi emulsiyasi.

Emulsiya yadrosini urab turuvchi qatlam murakkab, ko'p qavatli tuzilishiga ega ekanligi sababli tomchilarni o'zaro bir-biriga kushilib ketishi (dekantatsiyasi)ga qarshilik qiladi. Emulsiyaning "yoshi" qanchalik katta bo'lsa, uning buzilishi shunchalik qiyin va barqarorligi yuqori bo'ladi.

Demineralizatsiya jarayoni maqsadi - neft xomashyosi tarkibidagi barcha mineral tuzlarni "evakuatsiya" qilishdir. Bu jarayon demineralizatorlarda amalga oshirilib, quyidagi o'zaro ketma-ket boruvchi bosqichlardan iborat:

- "neft - suv" yupqa qatlami orqali mineral tuzlarni "demineralizatsiya suvi"ga o'tkazish;

- elektr maydoni ta'sirida tuzga tuyingan suv tomchilarini elektrokoalestsentsiya yuli bilan eyiriklashtirish;

- gravitatsiya kuchlari ta'sirida neft xom ashyosi tarkibidagi suvni ajratish.

Demineralizatorning ishlash printsipi quyidagicha:

a) Neft tarkibidagi tuzlarni suvda diffuziyalanishini ta'minlash. Buning uchun qaynok suv bir necha joydan neft tarkibiga purkaladi va emulsiyalangan "neft - suv" aralashmasi demineralizatorga yuboriladi. Suvning umumiy miqdori 3 – 6 % ni tashkil etib, aralastirgich yordamida aralastirilib turiladi.

b) Suv tomchilarini elektrokoalestsentsiyalash. Suvning neftdagi emulsiyasi uzluksiz neft fazasida suv tomchilarining tarqalishidan xosil bo'lgan 1/9 mikron ulchamdagi zarrachalardan iborat. Bu zarrachalarni neft tarkibidan ajratish (separatsiyalash) uchun gravitatsion ta'sir tufayli eyiriklashtirilib, suvni qatlam holiga o'tkaziladi (dekantatsiyalanadi).

Suv tomchilarining o'zaro birikib eyiriklashuvi - koalestsentsiya xodisasi deyiladi.


Bunga quyidagi omillar to'sqinlik qilishi mumkin:

- juda yuqori tezlikda neft va suvni aralastirish natijasida barqaror emulsiya xosil bo'lishi;

- suv tomchilarining o'zaro qo'shilishini qiyinlashtiruvchi moddalar (naftenatlar va temir sulfid)ni tomchilar atrofida yigilib qolishi;

- aksariyat hollarda yukoridagi omillar ta'sirini kamaytirish suv va tuzni ajratib olish uchun elektrokoalestsentsiya usulidan foydalaniladi.

Elektrokoalestsentsiyasining asosiy vazifasi suv molekulari qutbliligidan foydalanib, ularni birlashtirishdan iborat. Suv molekularida kislorod atomi (b^-) zaryadga vodород atomlari (b^+) zaryadlanib qutbli tuzilishga ega. Suvda Na^+ , Mg^{+2} , Ca^{+2} , Cl^- ionlari erishi tufayli uning qutbliligi yanada ortadi va tashki elektr maydoni ta'sirida "dipol - dipol" o'zaro ta'sir sababli tomchilarning o'zaro qo'shilishi tezlashadi:



Tomchilarning qushilishi:

- suv tomchilarning o'zgaruvchan tok ta'sirida batartib joylashuvi va harakati;
- suv tomchilarining o'zaro tortishuvi tufayli osonlashadi va yuz beradi.

Neft tarkibida suvning protsent miqdorining yukoriligi va elektr maydoni kuchining kattaligi deminerallashgan suv miqdorini oshiradi.

Demineralashdan keyingi qo'shimcha neytrallash.

Bu jarayonning vazifasi: deminerallangan neftga soda (Na_2CO_3) eritmasini yuborish. Maqsadi: qolgan tuzlar (MgCl_2 , CaCl_2) ni $\text{Mg}(\text{OH})_2$ va CaCO_3 holida ajratib chiqarish. Neft qoladigan NaCl atmosferali haydash cho'kmasi bilan chiqarib yuboriladi.

Bu jarayon unumdorligiga halaqit beradigan omillar:

- "neft - suv" muxitida kam miqdordagi tuzlar bilan neytrallovchi reagent urtasidagi o'zaro ta'sirlashuvning qiyinligi;

- ortiqcha olinishi mumkin bo'lgan soda ta'sirida jixozlarning emirilishini oldini olish uchun zarur bo'lgan soda miqdorini aniqlash (hisoblash). Optimal soda miqdori 5 - 10 rrm ni tashkil etadi.

Yuqorida aytib o'tilgan tadbirlar amalga oshirilgandan so'ng deminerallangan neftni atmosferali haydash kolonnasi boshagidagi kondensatorda eyig'iladi. Uning tarkibi uglevodorod va oz miqdordagi suv aralashmasidan iborat bo'lib, oson kondensatsiyalanadi. Kondensatsiyalanish "neft / suv" nisbatiga (ularning partsial bosimlariga) bogliq.

Uning oldini olish uchun kondensatsiyalanishning quyidagi ikki usulidan foydalaniladi:

1. Suvli muhitdagi HCl ni neytrallash.
2. Metall sirtida himoya pardasi hosil qiluvchi aminobirikmalar purkash.

HCl ni neytrallash barcha komponentlar kondensatsiya-lanishidan avval ikki usulda neytrallanadi:


a) Ammiak bilan neytrallash. Bu usulda sistemaga gaz xolidagi ammiak yuboriladi va HCl gazsimon holdagi amoniy xlorid tuziga aylantiriladi. Bu tuz kondensatsiyalangan suvda erib HCl xosil qiladi va uning miqdorini rN - metriya usuli bilan aniqlab, neytrallangan HCl miqdori aniqlanadi. Bu usulning kamchiliklari:

Birinchi: Sistemadagi HCl miqdori ko'p bo'lsa, ko'p miqdorda tuz hosil bo'lib, gaz holdan kristall holdagi moddaga aylanadi va kondensatsiyalanishdan avval tuz chukindisi kolonna tubida cho'kadi, natijada "cho'kindi ta'siridagi" juda havfli korroziya turini keltirib chiqaradi. Bu "boshak"dagi xloridlar miqdori > 50 rrm bo'lganda sodir bo'ladi.

Ikkinchi: Ammiak sistemaga kiritilganda pH ning ortishi oqibatida gaz holdagi H₂S ning suvda eruvchanligi ortadi. Bu qo'shimcha H₂S - li korroziya jarayoni yuz berishiga olib keladi. Buning oldini olish uchun deminerallash suvini qizdirib, erigan ammiakni buglatib turish kerak.

b) Neytrallovchi aminobirikmalardan foydalanish.

Atmosferali haydash kolonnasida vodorod xloridni neytrallash uchun morfolin - geterotsiklik amino birikma O(CN₂ - CH₂-)₂NH dan foydalaniladi. Uning ta'sirida:



suvda eruvchan barkaror tuz xosil buladi.

Deemulgatorlar adsobrciya qavatini buzib, mayda suv tomchilarini bir-biriga qo'shilishidan yirik tomchilar hosil qiladi va emulciyani tindirish orqali ajralishi tezlashadi. Bu jarayon yuqori temperaturada (odatda 80 – 120⁰C) tez boradi. Shuni e'tiborga olish kerakki, 120⁰C dan yuqori temperaturada neft qovushqoqligi kam o'zgaradi., shuning uchun deemulgatorlar ta'sir samarasi (effekt) sezilarli darajada ko'tarilmaydi.

Neftni qayta ishlash zavodlarida uch tipdagi elektrodegidrotorlar ishlatiladi:

- vertikal;
- gorizontal;
- sharsimon.

Elektrodegidrotorlar tavsiflari quyidagi jadvalda keltirilgan:

Jadval -3

Ko'rsatkichlari	Vertikal	Sharsimon EDSh – 600	Gorizontal
------------------------	-----------------	---------------------------------	-------------------

			1EG - 160	2EG - 160
Diametr, m	3	10.5	3.4	3.4
Hajmi, m ³	30	600	160	160
Ruxsat etilgan temperatura, °C	70-80	100	110	160
Me`yoriy bosim, MPa	0.34	0.69	0.98	1.76
Quvvati, t/soat	10-12	230-205	180-190	200-250
Elektrodlar orasidagi kuchlanish, kV	27-33	32-33	22-44	22-44


Elektr tuzsizlantirish qurilmalari ikki bosqichda ajratuvchi, ya`ni I- bosqichda sho`r suvlarni 70–80 % (mass) ni va tuzlarni 95–98 % (mass.) sini ajratadi, II- bosqichda esa qolgan emulsya suvlarini 60–65 % (mass.) ni va tuzlarni tahminan 92 % (mass.) sini ajratadi.

Zamonaviy elektrotuzsizlantirish qurilmalari orasida gorizontal elektrodegidratlar imkoniyatlari yuqoriligi va ko`pgina qulayliklarga egaligi bilan ajralib turadi, ya`ni uning elektrodlar yuzasi kattaligi, ishlab chiqarish quvvati yuqoriligi, shuningdek, neftning vertikal harakat tezligini past bo`lishidadir. Bu esa jarayonni ancha yuqori temperatura va bosimlarda o`tkazish imkonini berib, suvni yahshi cho`kishini ta`minlaydi. Elektrodlar orasidagi rusxat etilgan kuchlanishni (22–44kVt) oshirish samarasizdir, ya`ni suv tomchilari ajralishi qaytar holatga o`tib, emulciya mustahamligini oshirishiga olib keladi.

Gorizontal elektrodegidratli ikki bosqichli elektrotuzsizlantirish qurilmasi 2-rasmda keltirilgan. Hom ashyo neft nasos 1 yordamida issiqlik almashtirgich 2 va 3-bug`li qizdirgich orqali o`tib 110–120⁰C temperaturada 4- elektrodegiratorni I bosqichiga tushadi. Neft 1-nasos yordamida haydashdan oldin unga deemulgator, 3-bug`li qizdirgichdan so`ng esa 7-nasos yordamida ishqor eritmasi qo`shiladi. Bundan tashqari, elektrodegidratlar II bosqichdan ajratilgan suv 13-nasos yordamida hom ashyo neftga qo`shiladi. Neft 5-injektorli qo`shgichda teng miqdorda ishqor va suv bilan aralashtiriladi. Ishqor eritmasi kiritishdan maqsad quduqlarni kislotali ishlov berish vaqtida neftga tushgan korroziyaga chaqiruvchi vodorod sulfid kislotalarini neytrallash, suv esa – tuz kislotalarini yuvish uchun ishlatiladi.

Neft 4-elektrodegidrat pastidan gorizontal teshiklar ochilgan 21-tarqatish quvuri orqali kiritiladi. Tuzsizlantirilgan neft elektrodegidrat yuqori 19-kollektoridan chiqariladi. Suvning ajralgan qismi drenaj kollektori 22 orqali kanalizacyaga yoki 12-

qo'shimcha tindirgichga yuboriladi. Tindirgichdan ajratilgan suyuq aralashma 14-nasos yordamida jarayonga qaratiladi. Elektrodehidrator I bosqichida to'la suvsizlantirilmagan neft bosim ostida II bosqichga o'tadi. Diafragmali 10-qo'shgichga neft oqimi toza kimyoviy suv bilan yuviladi. Yuvish uchun beriladigan suv oldindan 9-bug'li qizdirgichda 80 - 90⁰C da qizdiriladi. Suvning sarfi 5 – 10 % (mass.)ni tashkil etadi. Tuzsizlantirilgan va suvsizlantirilgan neft elektrodehidrator I bosqichidan chiqarilib, rezervuarga yuboriladi. Elektrodehidratoridagi suv sathi avtomatik tarzda tutib turiladi. Elektrodehidratorlar I va II bosqichlardan kanalizatsiyaga tushuvchi suv qismini tindirilganlik sifat nazorati 15-ko'rinishli fonardan o'tadi.



Rasm - 2. Neftni elektr kuchlanish yordamida suvsizlantirish va tuzsizlantirish qurilmasi texnologik sxemasi: 1, 7, 8, 13, 14-nasoslar; 2-issiqlik almashtirgich; 3, 9-qizdirgichlar; 4, 11-elektrodehidratorlar; 5-injektorli aralashtirgich; 6-sho'r suvlarni chiqarish avtomatik klapanlari; 10-diafragmali aralashtirgich; 12-tindirgich; 15-ko'rish oynasi;

Elektrodehidrator moslamalari: 16-osma izolyatorlar; 17-elektr toki tushirish shinalari; 18-trasfomator; 19-tuzsizlantirilgan neft kollektori; 20-elektrodlar; 21-xomashyo kirishini taqsimlagich; 22-sho'r suv kollektori.

Asosiy qurilmaning texnologik hisobi

5) Asosiy qurilmaning texnologik hisobi

Elektrodegidratorning hisobi

1. Jarayonning moddiy balansi:

Boshlangich ma'lumotlar:

- Qurilmaning ishlab chikarish buyicha quvvati 2100 t/sutka (87500 kg/soat);
- Neftning qurilmaga kirishdagi harorati: 293 K;
- qurilmaga kiritilayotgan neft tarkibidagi suv 20 % ga va yo'ldosh gazlar miqdori 11,4% ga teng;
- Neftning qurilmadan chiqishdagi harorati 333 K;
- xom ashyoga nisbatan deemulgator sarfi: 0,002% *mass.*

Jarayonning moddiy balansi:

Neft xom ashyosi sarfi:

Neft (G_n) = xom ashyo (100%) - (suv + yo'ldosh gaz + deemulgator)

$$G_n = 100\% - (G_{\text{suv}} + G_{\text{gaz}} + G_d) = 100 - (20 + 11,4 + 0,002) = 68,60\%$$

Xom ashyo buyicha ishlab chiqarish quvvati $G_x = 87500$ kg/soat (2100 t/ sutka) ga binoan quyidagi hisablashlarni amalga oshiramiz:

$$x_i = \frac{G_x}{G_i}$$

$$G_{\text{нефт}}^{\text{кириши}} = x_n \cdot G_x = 68,60 \cdot 87500 = 60025 \text{ кг/ соам}$$

$$G_{\text{суб}}^{\text{кириши}} = x_c \cdot G_x = 20 \cdot 87500 = 17500 \text{ кг/ соам}$$

$$G_{\text{газ}}^{\text{кириши}} = x_2 \cdot G_x = 11,40 \cdot 87500 = 9975 \text{ кг/ соам}$$

$$G_{\text{деэмульгатор}}^{\text{кириши}} = x_d \cdot G_x = 0,002 \cdot 87500 = 17,50 \text{ кг/ соам}$$

Elektrodegidratorda xom ashyo 333 K gacha qizdirilgani bois yo'ldosh gazlar neftning yengil uchuvchan komponentlari xisobiga 0,07% ga oshadi va qurilmadan chiqishda uning sarfi 11,47% ga teng bo'ladi. Tozalangan xom ashyo tarkibida suv miqdori 0,5 % gacha bo'ladi. Shuni hisobga olgan holda gaz sarfi:

$$G_{\text{газ}}^{\text{чикши}} = x_2 \cdot G_x = (11,40 + 0,07) \cdot 87500 = 11,47 \cdot 87500 = 10036,25 \text{ кг/ соам ga teng bo'ladi.}$$

U holda, chiqayotgan suv miqdori kirishdagi ko'rsatkichidan neftda qolgan suv miqdori ayirmasiga teng bo'ladi. Ya'ni,

$$G_{\text{суб}}^{\text{чикши}} = x_c \cdot G_x = (20 - 0,5) \cdot 87500 = 19,5 \cdot 87500 = 17062,5 \text{ кг/ соам}$$

Tuzsizlantirilib, suvsizlantirilgan neft chiqishi quyidagiga teng bo'ladi:

$$G_{\text{нефт}}^{\text{чикши}} = x_n \cdot G_x = (68,60 + 0,5 - 0,07) \cdot 87500 = 69,03 \cdot 87500 = 60401,25 \text{ кг/ соам}$$

Yuqorida hisoblab topilgan ma'lumotlar asosida neft elektro tuzsizlantirish-suvsiizlantirish qurilmasi moddiy balansini tuzamiz (Jadval - 2).

Jadval – 2.

№	Oqimlar	massa ulushi, %	miqdori, t/soat
1.	Kiradi		
	Neft	68,60	60,025
	Suv	20,00	17,5
	Gaz	11,40	9,975
	Deemulgator	0,002	0,0175
	Jami kiradi:	100,00	87,5
2.	Qurilmadan chiqishda		
	Suv	19,50	17,0625
	Gaz	11,47	10,03625
	Neft (tarkibidagi suv miqdori 0,5%)	69,03	60,40125
	Jami chiqadi:	100,00	87,50

II.2. Jarayon issiqlik balansi.

Issiqlik balansini ishlab chiqarish jarayoni uchun yaxlit yoki uning alohida bosqichlari uchun ham tuzish mumkin. Shuningdek, sanoatda qurilma issiqlik balansi vaqt birligida (soat, kun, oy, ...), ish tsikli hamda dastlabki xom ashyo yoki tayyor mahsulot miqdoriga ko'ra tuzilishi mumkin. Issiqlik balansini tuzishda barcha oqimlardagi issiqlik miqdori temperaturaning istalgan darajasida ham 0°S dan hisoblanadi.

Issiqlik balansi hisobini 0° S ga nisbatan keltiramiz. Qurilmaga kiradigan xom ashyo – neft issiqlik miqdorini hisoblaymiz:

$$Q_{\text{xom ashyo neft}} = G_{\text{pech}} \cdot c_{\text{neft}} \cdot (t_{\text{ox}} - t_{\text{bosh}})$$

G_{pech} –pech orqali o'tuvchi neft sarfi, kg/soat;

s_{neft} –neftning issiqlik sig'imi, kg/Dj·K;

$(t_{\text{ox}} - t_{\text{bosh}})$ – neftning boshlang'ich va oxirgi temperaturalari farqi 0S.

Neftning temperatura va bosimga bog'liq iissiqlik sig'imi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$C_u = 1,5072 + \frac{T - 223}{100} (1,7182 - 1,5072 \rho_{277}^{293})$$

Neft ELOU qurilmasiga 293 K temperaturada kiradi va shu temperaturadagi zichligi 887,6 kg/m³ ni tashkil etadi

$$C_u = 1,5072 + \frac{293 - 223}{100} (1,7182 - 1,5072 \cdot 0,8876) = 1,774 \text{ kJ} / \text{kg} \cdot \text{K} ,$$

Yo'ldosh gazlarning issiqlik sig'imini komponentlarning jadval - 3 da keltirilgan o'rtacha issiqlik sig'implari orqali hisoblab topamiz:

Gazlarning o'rtacha issiqlik sig'implari. Jadval – 3.

	CO_2	N_2	CH_4	C_2H_6	C_3H_8	$n-C_4H_{10}$	$i-C_4H_{10}$
o'rtacha issiqlik sig'imi, $kDj/(kg \cdot K)$	0,843	1,036	2,226	1,751	1,667	1,682	1,666
miqdori, %	0,2	1,2	92,0	1,5	2,0	1,0	1,5

$$C_{gaz} = 0,002 \cdot 0,843 + 0,012 \cdot 1,036 + 0,92 \cdot 2,226 + 0,015 \cdot 1,751 + 0,02 \cdot 1,667 + 0,1 \cdot 1,682 + 0,015 \cdot 1,666 = 2,163 \text{ кДж/кг} \cdot K$$

Tarkibida turli tuz va kislotalari bo'lgan suvning issiqlik sig'imini analogik usulda jadval – 4 yordamida aniqlaymiz:

Tuzlarning o'rtacha issiqlik sig'imlari. Jadval – 4.

	H_2CO 3	H_2SO 4	HCl	$Ca(OH)$ 2	$Mg(OH)$ 2	$Na(OH)$ + $K(OH)$
O'rtacha issiqlik sig'imi, $kDj/(kg \cdot K)$	0,576	1,416	0,766	1,181	1,320	1,332
Miqdori, %	0,635	0,003	8,0	0,2	0,04	4,5

$$C_{суб} = 4,197 \cdot 0,93952 + 0,576 \cdot 0,00635 + 1,416 \cdot 0,00003 + 0,799 \cdot 0,08 + 1,181 \cdot 0,01181 + 1,320 \cdot 0,0004 + 1,332 \cdot 0,045 = 4,085 \text{ кДж/кг} \cdot K$$

Demak, xom ashyo neft tarkibida 20% suv va 11,4% yo'ldosh gaz bo'lganligi sababli tuzsizlantirishga kirayotgan xom ashyo issiqlik sig'imi additivlik qoidasiga binoan topiladi:

$$C_{нефть} = 4,085 \cdot 0,20 + 1,774 \cdot 0,686 + 2,163 \cdot 0,114 = 2,281 \text{ кДж/кг} \cdot K$$

U holda, qurilmaga kiritilayotgan neftning issiqlik sig'imi quyidagiga teng bo'ladi:

$$Q_{хом ашйё нефт} = G_{печь} \cdot c_{нефть} \cdot (t_{ox} - t_{дош}) = 87500 \cdot 2,281 \cdot (293 - 273) = 3991750 \text{ кДж/соат}$$

Pechdan chiqayotgan 333K temperaturadagi neftga berilayotgan issiqlik miqdorini hisoblaymiz:

$$Q_{нефть} = 87500 \cdot 2,281 \cdot (333 - 293) = 7983500 \text{ кДж/соат}$$

Shu asnoda qurilmadan chiqayotgan neft issiqlik miqdorini aniqlaymiz:

$$Q_{нефть}^{шикий} = 60025 \cdot (1,774 \cdot 0,995 + 4,085 \cdot 0,005) \cdot (293 - 273) = 2143558,7775 \text{ кДж/соат},$$

Qurilmadan chiqib ketayotgan suv va gazdagi issiqliklarni mos holda 293K va 323 K larda aniqlaymiz :

$$Q_{суб} = 17062,5 \cdot 4,085 \cdot (293 - 273) = 1394006,25 \text{ кДж/соат}$$

$$Q_{газ} = 10036,25 \cdot 2,163 \cdot (323 - 273) = 1085420,4375 \text{ кДж/соат}$$

Hisoblash natijalari asosida olingan ma'lumotlar asosida ELOU qurilmasi issiqlik balansini tuzamiz (Jadval - 5).

Issiqlik balansi. Jadval – 5.

№	Oqimlar	massa ulushi, %	Miqdori, MDj/soat
1.	<i>Kirmoqda</i>		
	Neftdagi issiqlik miqdori	33,3	3991,750
	Pechda berilayotgan issiqlik	66,7	7983,500
	<i>Jami kiradi:</i>	100	11975,25
2.	<i>Chiqmoqda</i>		
	Neftdagi issiqlik miqdori	18,0	2143,5587775
	Suvdagi issiqlik miqdori	11,6	1394,00625
	Gazdagi issiqlik miqdori	9,1	1085,4204375
	Atrof muhit va apparatlarda yo'qotilayotgan issiqlik	61,3	7340,82825
	<i>Jami chiqadi:</i>	100	11975,249758

Neft va neft mahsulotlari tindirgichlarini hisoblash

Ish unumdorligi 3000 t/sutka neftni tindirish uchun zarur qurilmalar soni va o'lchamlari (diametr, uzunlik) hisoblansin.

Berilgan: qurilma yengil ($r_{20}=0,875$) va og'ir ($r_{20}=0,913$) neftlarni qayta ishlashi kerak.

Neftlarning qovushqoqlik koefficientlari 5.6-rasmdan olinadi. Neft mahsulotlarini dastlabki isitish temperaturalarini: yengil neft uchun 160°S ; og'ir neft uchun 175°S .

Echish: tindirgichdagi temperaturani 100°S deb kabul qilamiz. Qurilma ham og'ir, ham yengil neftlarda ishlagani uchun hisoblashlarni eng katta o'lcham talab qiladigan neft uchun bajariladi. Lekin hozircha qaysi biri uchun katta o'lchamli qurilma kerakligini bilmaganimiz uchun ikkalasi uchun hisoblashlar parallel olib boriladi.

Neftning sekundli sarfi. Neftning 100°S temperaturadagi zichligi

1 - rasmdan tanlanadi. Yengil neft uchun $r_{10}<0,82$ ($r_{20}=0,875$) va og'ir $r_{100}=0,86$ ($r_{20}=0,913$). Neftlarning sekundli sarfi: yengil fraksiya uchun:

$$V_e = \frac{3000000}{24 \cdot 3600 \cdot 820} = 0,0424 \text{ m}^3 / \text{c};$$

og'ir fraksiya uchun:

$$V_o = \frac{3000000}{24 \cdot 3600 \cdot 860} = 0,0404 \text{ m}^3 / \text{c};$$


100°S temperaturada neftlarning kinematik qovushqoqlik koeffitsientlari: yengil fraktsiya uchun:

$$\nu_{100} = 0,0264 \text{ cm}^2 / \text{c} = 0,00000264 \text{ m}^2 / \text{c};$$

og'ir fraktsiya uchun: $\nu_{100} = 0,0652 \text{ cm}^2 / \text{c} = 0,00000652 \text{ m}^2 / \text{c};$

Tindirgich diametri: yengil fraktsiya uchun: $D = \frac{V}{1820 \cdot \nu} = \frac{0,0424}{1820 \cdot 0,00000264} = 8,83 \text{ m}$

og'ir fraktsiya uchun: $D = \frac{V}{1820 \cdot \nu} = \frac{0,0424}{1820 \cdot 0,00000652} = 3,4 \text{ m}$



1- rasm. Neft va veft mahsulotlari kinematik qovushqoqligining temperaturaga bog'liqligi.

1-kerosin distillyati; 2 - dizel moyi distillyati; 3 - neft; 4 - og'ir neft; 5 - bibieybat og'ir nefti.

Neft mahsulotlari zichliklarining temperaturaga bog'liqligini.

